

Innovative Development in Educational Activities

**INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED
TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF
INNOVATIVE EDUCATION IN THE
21ST CENTURY 2022/4**

ISSN: 2181-3523

12 OCTOBER, 2022 YEAR

International Scientific Conference

openidea.uz



PKP | INDEX

ASALARILARNING NOZEMATOZI

Azimova Dilafruz Ismoilovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti (tayanch doktorant)

E-mail: azimovadilafruz@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada asalarichilik xo'jaliklarida keng tarqalgan asalarilarning nozematoz kasalligi epizootologiyasi, etiologiyasi, patogenezini, laborator tashhishlash usullari, oldini olish tadbirlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Asalari oilasi, ona asalari, Nozematoz, Nosema apis, Nosema ceranae, Apis mellifera L., mikrosporidiya, . jag'osti bezi, gemolimfiya, organoleptik, mikroskopiya.

NOZEMATOSIS OF BEES

Abstract: The epizootology, etiology, pathogenesis, methods of laboratory diagnosis, preventive measures of bee nozematous disease common in bee farms are covered in the article.

Key words: Bee family, queen bee, Nosematosis, Nosema apis, Nosema ceranae, Apis mellifera L., microsporidia. jaw gland, hemolymph, organoleptic, microscopy.

Yer yuzida insoniyatga ma'lum bo'lgan o'simliklarning 80% ga yaqini oraliq changlanish natijasida tugun tugadi, meva, urug', hosil qiladi. Oraliq o'simliklarning beshdan to'rt qismi hasharotlar yordamida changlanishga muhtoj hisoblanadi va bu o'simliklarning katta qismi asalarilar tomonidan changlanadi. Entomofil o'simliklarni asalarilar yordamida changlantirganda hosildorlik o'rtacha 25- 50 % oshadi.

Asalarichilkni rivojlantirishda ko'plab invazion kasalliklar to'sqinlik qiladi. Shunday kasalliklardan biri asalarilarning nozematoz kasalligidir. Kasallik Osiyo, Yevropa, Amerika, Shimoliy Afrika davlatlarida, shu jumladan, O'zbekistonda ham keng tarqalgan. Nozematoz kasalligi karantin kasalliklari guruhiga kirib Xalqaro Epizootik Byuroning "B" ro'yxatida turadi. [3.4]

Nozematoz asalarilarning protozoy kasalligi bo'lib, kasallik bir hujayrali parazitlarni asalarilarning ichak epiteliya hujayralarida, ba'zan esa malpigi tomirida,



tuxumdonida, jag'osti bezida, gemolimfada parazitlik qilishi tufayli qo'zg'atilib, katta va yosh arilarning o'rta ichaklarining funksiyasining buzilishi, o'zgarishlari va asarilarni nobud bo'lishi bilan xarakterlanadi. Kasallik qo'zg'atuvchisi ari ichagida ozuqa orqali kirib u erda rivojlanadi va tashqi muhitga sporalarni ari axlati orqali chiqaradi.

Nozematoz bilan zararlangan asalari uyasi

Ko'p hollarda nozematoz boshqa kasalliklar (surunkali falajlik, qopsimon tuxum qo'yish) bilan birga kechadi, salmonellyoz (paratif), arilarni chirish kasalligi, gafnioz, septitsimiya kabi kasalliklarga moyilligini ortiradi. Nozematoz organizmning patogen zamburug'larga - aspergillalar, kandidalar va boshqalariga - chidamliligini pasaytiradi. Nozematoz kasalligi salmonellyoz (paratif) va gregarinoz bilan birga kechgan holatlar kuzatilgan.[3.5]

Arilar zararlanishining optimal havo harorati $+30^{\circ}\text{C}$ ($+10$ dan $+37^{\circ}\text{C}$ gacha). Zararlangan arining o'rta ichagida 250-262 mln. dona spora, orqa ichagida esa -500 mln. dona spora joylashadi. Sporalarning chidamliligi ko'plab omillarga bog'liq

bo'ladi. Najas qoldiqlarida *nosema apis* sporalari o'zining hayotchanligini 1 yildan ko'proq saqlashi mumkin, asalda - 4 oygacha va o'lgan asalarilar tanasida - 4,5 yilgacha. *Nosema ceranae* sporalarining chidamliligi chuqur o'rganilmagan, lekin ular qurib qolishga va yuqori haroratga chidamli bo'ladi, muzlatishga chidamsiz. *Nosema apis* sporalari 60°C hararotda 15 daqiqa davomida qizdirilganda nobud bo'ladi. *Nosema ceranae* sporalari esa yuqori haroratga chidamli bo'lib +60°C gacha qizdirilganda ham yashovchanlik qobiliyatini saqlab qoladi. [6]

Laboratoriyaga o'lgan va tirik arilar, asal, mumli in katakchalarining bir qismi, perga, ishlatilgan va arilar tomonidan ifloslantirilgan ramkalar, axlatlarining izlari bor boshqa inventarlar yuboriladi. Tekshirish uchun olingan asalari namunalari laboratoriyaga jo'natilishidan oldin 4% li formalin yoki 70% li spirtida fiksatsiya qilinadi yoki muzlatiladi. Asalari namunalarining oxirgi qorin segmentlari ajratib olinadi va orgonoleptik, mikroskopik usulda tekshiriladi va ichidagi sporalar sonini aniqlash uchun Goryaev kamerasida sanaladi. Davolashda kasallikning mavsumiylikini hisobga olib O'zbekiston Respublikasida ruxsat etilgan preparatlar yo'riqnomalari asosida davolashda qo'llanladi.

Nozematozni oldini olish maqsadida asalari oilalariga ularning faol hayot davrida yetarli darajada oqsilli oziqalar berilishini tashkil etish kerak. Qishlovga yosh arilar soni ko'p bo'lgan sifatli asali bilan kuchli oilalani qoldirish kerak. Kuchsiz oilalar, ya'ni yozda rivojlanishni yakunlay olmagan oilalar birlashtirilib, bir uyaga solinadi va issiq qilib o'raladi. Har yili dezinfeksiya tadbirlari o'tkaziladi. [1.2]

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda nozematoz kasalligi ko'proq bahorda, kamroq hollarda kuzda uchrovchi mavsumiy kasallik bo'lib asalarilarda mikrosporidiyaning uchta turi aniqlangan bular: *nosema apis*, *nosema ceranae*, *nosema neumannii*. Uzoq muddat arilarlarni bir uyada asrash, uyalarni ko'chirish, kasal oiladagi oziqa, kasallangan ona arini ko'chirganda, o'g'ri arilar bilan, har xil hasharotlar bilan muloqotda bo'lganda, suvni o'lgan asalarilar, asalari axlatlari bilan ifloslangan idishlardan ichganda, asalarichilar tomonidan sog'lom oilalar bilan kasallangan oilalarning birlashtirilishi, ish qurollarini dezinfeksiya qilinmasdan

ishlatilishi nozematoz bilan zararlanish omili bo'lib hisoblanadi. Kasallikka chalingan asalari oilalarining kuchsizlanishi va nobud bo'lishi asalarichilik xo'jaligiga katta iqtisodiy zarar keltiradi. Asalarilarning nozematoz kasalligida davolash choralaridan ko'ra, asalari oilalarini kuchini oshiruvchi, turli infeksiyon va invazion kasalliklarga chidamliligini mustaxkamlovchi vositalarni qo'llash, profilaktik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli o'tkazilisa samaradorligi yuqori bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Davidov A.S. Do'squlov V.M. Djo'raqulov O.K. "Asalari kasalliklariga qarshi dorivor o'simliklar". Jurnal "Zooveterinariya", 2017-№4.
2. Davidov O.S, Mavlonov S.I, Katayseva T.V. "Asalari kasalliklarini oldini olish va davolash tadbirlari ". Jurnal " Zooveterinariya " 2014-№11.
3. Nasimov SH.N, Gerasimchik V.A, Mamatova Z.B, Xabibov F.A. "Asalari kasalliklari va zararkunandalari " o'quv qo'llanma. Toshkent, 2021.
4. Герасимчик В.А, Садовникова Э.Ф. "Болезни рыб и пчёл" Минск 2017.
5. Садовникова Е.Ф., Кузмин Е.Е., Герасимчик В.А., Дунец Е.Н. "Сравнительная эффективность лечебно профилактических мероприятий при нозематозе пчел" Ученые Записки УО ВГАВМ, т.50, вып. 1, ч. 1, 2014.
6. Садовникова Ю.Ф.; «Применение химических и растительных препаратов в борьбе с нозематозами пчел», Витебск, 2014.

14

**O'ZGARUVCHAN SOHALI YARIMO'TKAZGICHLI BIRIKMALARNI
O'STIRISH VA FOTOELEKTRIK XOSSALARINI O'RGANISH**

Risboyev T., Ashirov Sh., Sapparova G.

Page No.: 68-71

15

**KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI NUTQ NUQSONLARINI BARTARAF
ETISHDA MUHIM OMIL SIFATIDA**

Abduvaitova Ozoda Omon qizi

Page No.: 72-75

16

**OLMANI GEOGRAFIK KELIB CHIQISHI VA BIOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

Axmadjonov Avazbek Akmaljon o'g'li., Ibragimov Odiljon Olimjonovich.,
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich

Page No.: 76-84

17

**FORMATION OF INTERIOR DESIGN OF EARLY MEDIEVAL MOSQUES
IN UZBEKISTAN**

Azamova Durdona Avazjon kizi

Page No.: 85-88

18

ASALARILARNING NOZEMATOZI

Azimova Dilafruz Ismoilovna

Page No.: 89-92

19

**THE ROLE OF THE CEFR CERTIFICATE IN TEACHING ENGLISH IN
UZBEKISTAN**

Boborahmatova Oytula., Yugay Evgeniya Viktorovna

Page No.: 93-96

20

**ISAJON SULTONNING "ALISHER NAVOIY" ROMANIDA MOHIRONA
TASVIR. (PEYZAJ HAQIDA)**

Davronova Surayyo Abdurahmon qizi

Page No.: 97-100